

BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA «MUAMMOLI TA'LIM» METODIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

To'qliyeva M. Maktabgacha , boshlangich va
maxsus ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Muammoli ta'lim bu-o'quvchiga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo'l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o'qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta'lim darsda bir vaqtning o'zida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi harakati bo'lib, u o'quvchi shaxsidagi muhim belgi-ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. N.G. Dayri aytganidek, - "Darsda o'rganiladigan mazmunning murakkab qismini o'zlashtirishda o'qituvchining faoliyati qanday bo'lsa, o'quvchi faoliyatini ham shu darajaga yetkazish muammoli ta'limning asosiy maqsadidir"¹. Muammoli ta'lim- o'quvchilarning erkin fikrlashlariga, o'zining fikrini erkin bayon qila olishlariga va fikrlarini yanada rivojlantirishlariga ta'sir etishdir. Bunda o'quvchi diqqat bilan tinglashi, mustaqil va yolg'iz fikrlashi, jamoa bo'lib fikrlashi, tahlil qilishi, ko'pchilik bo'lib muhokama qilishi va to'plangan fikrni bayon qila olishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2003-yil 28-may «Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan 100 innovatsiyalar to'g'risidagi xay'at qaroriga ko'ra, 2003/2004 – o'quv yili «Ta'lim sifatini oshirish yili»,² deb belgilandi. Oliy ta'lim islohatining hozirgi sifat bosqichida professor-o'qituvchilar oldida yangi muhim vazifa qo'yildi. O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2003-yil 28-may 5/1 sonli Buyrug'iga muvofiq fanlar bo'yicha muammoli ma'ruzalar matnini ishlab chiqish va ularni 2003/2004 o'quv yilidan boshlab izchillik bilan o'quv jarayoniga tadbiq etish belgilandi.

Muammoli ta'lim o'qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir minutini hisobga olishni, ushbu vaqtda kerakli samara hosil bo'lishi uchun o'zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu masalani hal etishning muhim sharti o'qituvchining bo'lajak o'quv mashg'ulotiga

tayyorgarligidir. Tayyorgarlik jarayonida muammoli ta'limning barcha ko'rinishlarini hisobga olish va uni uslubini ishlab chiqish zarur. Muammoli ta'limga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni yengishda o'qituvchini innovatsion ijodiy laboratoriyasining ahamiyati katta.

Ana shunday qiyinchiliklardan biri darsni muammoli tashkil qilish va muammoni o'rganish usulini tanlashdadir. Chunki tanlangan usul faqat o'quv materialini o'zlashtirishni ta'minlabgina qolmay, balki o'quvchilar faoliyatida mustaqillikni ham ta'minlashi zarur.

Ikkinchi qiyinchilik esa muammoli ta'limni ko'rinishini aniqlashda yuzaga keladi, ya'ni o'qituvchi muammoni yechishga sinfdagi barcha o'quvchilarni jalb qiladimi yoki vazifani ayrim guruh o'quvchilariga bajartiradimi? Bu qiyinchilik o'qituvchida muammoli vaziyat va muammoning bayoni haqidagi tasavvurlarini yetishmasligidan kelib chiqadi.

Uchinchi qiyinchilik esa darsda o'quvchilarni qiziqishini uyg'otish va uni uzluksiz rivojlantirib borishida ko'rinadi. Chunki o'quvchilar diqqatini bir nuqtaga muntazam to'plashga o'qituvchining tajribasi va mahorati yetmasligi mumkin.

Muammoli ta'lim haqidagi to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, shuni ta'kidlash lozimki, bu ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 ko'rinishga ega. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish, Muammoning qo'yilishi, Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shakllantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki u o'quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o'quvchilarning izlanishiga, fikrlashga o'rgatadi

Muammoli o'qitishning asosida amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj. Dyui (1859-1952) g'oyalari yotadi. U 1894 yilda Chikago shahida o'qitish asosini o'quv rejasi emas, balki o'yinlar va mehnat faoliyati tashkil etgan tajriba maktabini tashkil qilgan. O'qish, hisoblash, yozish bo'yicha mashg'ulotlar bolalarning fiziologik balog'atiga qarab o'z- o'zidan paydo bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq

o'tkazilgan. Dj. Dyui o'qish uchun to'rt ehtiyojni ajratgan: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifoda, tanqidiy. Bilish manbalari sifatida bolalarga quyidagilar taqdim etilgan: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalari. Bolalar o'yin va amaliy faoliyat- mehnatga jalb etilganlar. Bu maktabda qo'llangan o'qitishning yangi uslublari, yo'llari va tamoyillari nazariy asoslanmagan va konsepsiya sifatida ifodalanmagan edi.

Dj. Dyui g'oyalari bo'yicha bola bilishda insoniyat yo'lini qaytaradi, bilimlarni o'zlashtirish spontan, boshqarilmaydigan jarayon bo'lib, bola o'zida hosil bo'lgan ehtiyojni qondirishi natijasi sifatida materialni o'zlashtiradi. Dj. Dyuning fikricha o'qitish samaradorligi shartlari o'quv materialini muammolashtirish bola faolligi bilan bog'liq bo'lishi kerak. Muammoli o'qitishni chuqur o'rganish XX asrning 60 yillarida boshlangan. Fikrlash psixologiyasi nuqtai nazaridan muammoli o'qitish g'oyasi va prinsiplari S.L. Rubinshteyn, M.I. Maxmutov, V. Okon, I.Y. Lerner kabi psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Bu g'oya O'zbekistonlik pedagog olimlardan R.Mavlonova, J.G'.Yo'ldoshev, To'xtaxo'jayeva, O.Hasanboyeva, S.Otamuratova, R.Safarovalarning ilmiy izlanishlarida tadqiqi etilgan. M.Davletshin, E.G'oziyev, E.Qodirov, G'.Shoumarov kabi psixolog olimlarimiz muammoli ta'limning bolalar bilish faoliyatini shakllantirishdagi rolini psixologik nuqtai nazarlarini yoritib berganlar.

Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof-muhitni, o'zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o'rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo'lib o'rgana boshlaganlar. Bu jarayonlar - sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bog'liqki, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyin. Masalan, ko'rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko'ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? Diqqat bilan ko'rgan yoki o'qigan tekstingizni eslab qolasiz. Yoki biror narsa to'g'risida fikrlash uchun bizga bir vaqtda ham ilgari idrok obrazlari, ham eslab qolish mahoratimiz, ham ichki nutqimiz, irodamiz va diqqat kerak bo'ladi. Hattoki, tasodifan qo'limizga kirib

ketgan zirapchaga bergan reaksiyamiz ham emotsiyalardan tashqari, o'sha narsaning bu yerda qanday paydo bo'lganligi kabi qator tafakkur jarayonlarini keltirib chiqaradi.

Murakkab kompyuter texnikasi chiqqandan keyin odamning o'z psixik jarayonlariga qiziqishi yanada ortdi. Endi ma'lumotlarni qabul qilish (an'anaviy idrok deb ataluvchi jarayonga o'xshash), ularni qayta ishlash (tafakkurga o'xshash) va uni saqlash (xotira) haqida ko'p gapiradigan bo'lib qoldik. Lekin bu insondagi tabiiy jonli jarayonlar ahamiyati va tarbiyasi masalasini yanada yuqori ko'tardi.

Psixologiya sohasida eksperimental ishlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi aslida inson psixikasi kompyuterdan ko'ra murakkabligi va odam anglagan ma'lumotlaridan ko'prok narsalarni idrok qilib, qabul qilishini isbotladi. Masalan, maxsus asboblardan yordamida aslida odam ko'rmayotgan, his qilmayotgan juda kuchsiz signallar ham fiziologik reaksiyalarni keltirib chiqarayotganligi qayd etildi. Masalan, shu narsa aniqlanganki, odam kino ko'rayotganda bir sekundda 24 kadrni idrok qiladi va biror tasvir ko'z o'ngida gavdalanadi. Psixologlar shunday eksperiment qilishdi: kunlarning birida o'ziga xos tasvir namoyon etildi. 24 ta kadr o'rniga 25 kadr berib, o'sha 25-kadrda «Koka - qola iching» degan yozuv berildi. Tabiiy, oddiy idrok bu bitta kadrni ilg'amaydi. Lekin kinoteatr bufetida ushbu ichimlikni ichish kadrda keyin 18 foizga oshgan. Demak, aslida ong bu ma'lumotni qabul qilgan, lekin real anglash, oydinlashuv ro'y bermagan ekan.

Analogik holat xotiramizda ham tez-tez ro'y beradi. Kimnidir uchratib qolamizda, o'ylanamiz: qayerda ko'rgan ekanman? Hech eslolmaymiz, lekin yuzi, ko'zi va boshqa sifatlari tanishday. Buni ham shunday izohlash lozimki, odam ko'rgan-kechirganlari aslida miyada saqlanadi, biz ong sohasiga ayrimlarinigina chiqara olamiz. Faqat, kasal bo'lib yoki biror narsadan qattiq tashvishga tushganimizda kalamizga har xil uy-fikrlar kelaveradi. O'shalar aslida bor narsalarning beixtiyor tiklanishi.

Ongdagi ma'lumotlarning aslida miyamizdagilardan kamligining asosiy sababi - odam har qanday ma'lumotni *saralab, tanlab qabul qiladi*, o'zi uchun «ahamiyatsiz» deb baholagan narsaga diqqat ham qilmaydi, eslab qolmaydi ham.

U o'z ongida barcha mavjud ma'lumotni o'ziga xos tarzda qayta ishlaydi, o'zgartiradi. Shuning uchun ham har bir inson o'ziga xos va qaytarilmasdir - individualdir, deyiladi.

Odatda, kichik yoshdagi o'quvchilar bilish faoliyatini shartli ravishda 2 ga bo'lish mumkin. Biri dars vaqtida, ikkinchisi o'quvchilarning uyda bajarish uchun berilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida sodir bo'ladi.

Agar o'quv faoliyati o'qituvchi rahbarligida amalga oshirilsa, o'quvchilarning bilish faoliyatini quyidagicha taqsimlash mumkin:

- O'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv vazifalarini va harakatlar rejasini qabul qilish.
- Qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun o'quv faoliyati va operatsiyalarni bajarish.
- O'qituvchi nazorati ostida va o'z-o'zini nazorat qilish orqali o'quv faoliyatini yo'naltirish.
- O'qituvchi rahbarligida o'quv faoliyati natijalarini tahlil etish.

O'qituvchi rahbarligisiz mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirishda:

- O'z o'quv faoliyatining vazifalarini konkretlashtirish va rejalashtirish.
- O'quv faoliyati metod, vosita va shakllarini rejalashtirish.
- O'quv faoliyatini o'zi tashkil etish.
- O'quv jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish va baholash.
- Bilishda o'z-o'zini yo'naltirish.

O'quv faoliyatining tuzilish elementlari hal etish zarur bo'lgan masalalar xarakteriga ko'ra, qo'llanilayotgan yetakchi metodlarga bog'liq holda birmuncha o'zgarishi mumkin.

O'zlashtirishning tipik tuzilishi:

1. Hissiy bilish (qabul qilish).
2. Anglab yetish, tushunib yetish.
3. Umumlashtirish.
4. Mustahkamlash.
5. Qo'llash (amaliyot).

Lekin bu tuzilish yuqorida yozilgan tartibda kechadi deyish noto'g'ri. Chunki bilish nazariy tushuncha, xulosalardan ham boshlanishi mumkin.

O'zlashtirish jarayonida bilish motivlarini rivojlantirish

O'qish motivlari o'quvchilarni o'qishga undovchi ichki sabablarni bildiradi. Inson har qanday faoliyatga kirishishiga u yoki bu undovchi, harakatlantiruvchi ichki kuch, ichki intilish, qo'zg'ovchi turtkilar sabab bo'ladi.

Motivlar o'quvchilarning o'quv faoliyatiga bo'lgan munosabatlariga bevosita ta'sir qilib, egallagan bilimlarining sifatini belgilaydi.

O'quv amaliyotida uch xil o'quv motivlari mavjud.

1. Bilishga bo'lgan havas. O'quvchi bizni o'rab turgan dunyoni bilishga bo'lgan havasi, qiziqishi tufayli bilimlarni egallashga harakat qiladi. Aqliy va jismoniy faoliyatdan ma'naviy qoniqish hosil qiladi.

2. Ijtimoiy motivlar O'quvchi jamiyat qurilishida faol qatnashishga yaxshi tayyorlanish uchun yaxshi o'qiydi. Keng ijtimoiy motivlar o'quvchi uchun shaxsiy ma'no kasb etadi. Masalan, institutga kirish uchun yoki biron bir soha-da faol ishtirok etish uchun.

3. O'qitishdan boshqacha (shaxsiy) maqsadni ko'zlash bilan bog'liq motivlar.

Bu motivlar hayotda bir-birlari bilan bevosita uzviy bog'liq bo'ladi.

O'qitish jarayonini va bilimlarni o'zlashtirish jarayonlarini tashkil etish xarakteriga, o'quv material mazmunining tuzilishidagi o'ziga xoslik va yetakchi metodlar, vositalarning tanlanishiga va ularni qo'llashga qarab o'qitishning bir nechta ko'rinishlarni ajratish mumkin: tushuntirish, illyustrativ, muammoli, programmalashtirilgan mashina yordamida va h. k.

O'quvchi fikrlash faoliyatining o'qituvchi tomonidan tashkil etilishini uning xarakteriga ko'ra - reproduktiv yoki tadqiqot-tushuntirish, illyustrativ yoki muammoli o'qitishga ajratish mumkin.

Shunga ko'ra o'qituvchi bilan o'quvchilar faoliyati va o'zaro harakati o'qitishning bir nechta ko'rinishlarida qanday kechishini ko'zdan kechiramiz:

Tushuntirish-illyustrativ o'qitish

Bu shunday sodir bo'ladi:

O'qituvchi	O'quvchi
Turli ko'rgazmali vositalardan foydalannib, bilim va ko'nikmalarning yangi elementlari haqida o'quvchilarga ma'lumot beradi. Eng muhim holatlarni tushuntiradi, o'quv axborotlarini anglab yetishni tashkil etadi. Bilimlarning umumlashtirilishini tashkil etadi. O'quv materialni qaytarish, qiyosiy tushuntirish, nazorat orqali bilimni mustahkamlashnn tashkil etadi. Turli amaliy xarakterdagi vazifalarni qo'yish, mashqlar, mehnat topshiriqlarini bajarish orqali olingan bilimlarni amalda qo'llashni tashkil etadi.	O'quv materialini qabul qiladi. Eng muhim holatlarni o'zlashtiradi, materialning dastlabki ko'rinishini aniqlaydi. Anglab yetish uchun turli usullarni qo'llaydi va o'quv materialining tushunarli bo'lishiga erishadi. Eslab qolishning turli usullarini qo'llash orqali yangi materialni qaytarish yo'li bilan mustahkamlaydi. Mashqlar bajarishda mehnat topshiriqlarini bajarishda, hayotiy masalalarni tahlil etishda o'rganganlarini qo'llaydi.

Bu o'rinda material mazmuni izchil, sistemali tarzda berib boriladi.

Muammoli o'qitish

O'qitishning muammoli ko'rinishida o'qitish va o'zlashtirish quyidagi tarzda kechadi:

O'qituvchi	O'quvchi
Savol, tajriba ko'rinishlarida muammoli vazifalarni o'quvchilar oldiga qo'yadi. O'quvchilar tomonidan qo'yilgan vazifalar muhokamasini tashkil etadi. Hal etishda zarur bo'lgan vazifalar,	Vazifalarni qabul qiladi va ularni hal etish mumkin bo'lgan yo'llarni tushuntirib beradi. Ushbu vazifalarni hal etishning mumkin bo'lgan variantlarini aytadi. Vazifalarni hal etishda variantlardan

ilgari surilgan variantlar qanchalik to'g'ri ekanligini isbotlashni taklif etadi. O'quvchidan yangi o'zlashtirgan bilimlari to'g'risidagi xulosalarning to'g'riligini tahlil qilib berishni so'raydi. Agar xulosalar xato bo'lsa, o'sha xatolarning sodir bo'lish jarayonini tahlil qilishni taklif etadi va aniqlashtirilgan yoki konkretlashtirilgan vazifalarni qo'yadi. Vazifalarni hal etishda olingan natijalarni umumlashtiradi, yutuqlarni rag'batlantiradi va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ko'rsatish orqali muammoli fikrlash jarayonini takomillashtirib boradi. Yangi bilimlarni mustahkamlash maqsadida savollar qo'yadi. Olingan bilimlarni amalda qo'llash uchun mashqlar taklif etadi.	biri eng ma'qul ekanligini isbotlaydi. Yangi o'zlashtirgan bilimlarini xulosalaydi va umumlashtiradi. Vazifalarni to'g'ri hal etish yo'llarini izlab topadi. Mavzu bo'yicha eng ixcham xulosalarni o'zlashtiradi. Xulosalarni qaytarish, o'z-o'zini nazorat etish orqali olingan bilimlarni mustahkamlaydi. Olingan bilimlarni amalda qo'llash bo'yicha mashq va topshiriqlarni bajaradi.
---	---

Programmallashtirilgan ta'lim

Programmallashtirilgan ta'lim material mazmuni uncha katta bo'lmagan, mantiqiy tugallangan mustaqil bo'laklarda amalga oshiriladi. Agar belgilangan mustaqil bo'lak o'quvchi tomonidan o'zlashtirganligi ma'lum bo'lsa, u holda nazorat amalga oshiriladi. Ko'pincha, o'quv materiallarini o'quvchilar o'qituvchilardan emas, balki programmallashtirilgan qo'llanmalardan yoki maxsus displeylardan oladi. U holda ushbu jarayon quyidagicha kechadi:

O'qituvchi	O'quvchi
Darslik yoki kompyuter variantida materialning birinchi qismini o'quvchiga havola etadi. Materialning birinchi qismini tushuntiradi	Birinchi bo'lak materialini qabul qiladi. Ushbu bo'lak mazmunining mohiyatini anglab yetadi, tushunadi.
Nazorat savollari beradi. Agar o'quvchilarning javoblari to'g'ri bo'lsa, yangi bo'lak materialni beradi va shu tariqa o'quv jarayoni davom etadi.	Savollarga javob beradi. Birinchi bo'lak materialini o'zlashtiradi. Keyin yangi bo'lak materialni o'zlashtirishga o'tadi.

Ushbu mavzu bo'yicha materialning butun hajmi o'zlashtirilgan bo'lsa, u holda o'qitish jarayoni quyidagicha sodir bo'ladi:

O'qituvchi	O'quvchi
Mustahkamlash uchun topshiriq beradi. O'zlashtirilganlarni qo'llash uchun topshiriq beradi.	Mustahkamlash yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaradi. O'zlashtirilganlarni qo'llash bo'yicha topshiriqlarni bajaradi.
Nazorat savollari beradi. Agar o'quvchilarning javoblari to'g'ri bo'lsa, yangi bo'lak materialni beradi va shu tariqa o'quv jarayoni davom etadi.	Savollarga javob beradi. Birinchi bo'lak materialini o'zlashtiradi. Keyin yangi bo'lak materialni o'zlashtirishga o'tadi.

Umumlashtirilgan va qo'llanilgan bilimlar faqat yetarli darajadagi bo'lak materiallari butunligicha o'zlashtirilgan bo'lsagina to'liq bo'ladi.

Shunday qilib, o'qituvchi uchun o'qitishni yo'lga qo'yishning turli-tuman ko'rinishlari taklif etildi. Bu o'rinda eng muhim vazifa har bir konkret holat uchun o'quv jarayonining eng qulay (optimal) variantini tanlashdadir.

Ushbu murakkab vazifani hal etishda esa optimal didaktik yechimni tanlash metodikasi yordam beradi.

Muammoli o'qitish takomillashgan o'qitish texnologiyasi sifatida.

Hozirgi oliy maktabdagi samarador o'qitish texnologiyasi - bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi.

Muammoli o'qitish jarayonida o'quvchining mustaqilligi o'qitishniig reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o'sib boradi. Hozirgi pedagogikaga oid adabiyotlarda muammoli o'qitishning turli tarif va tavsiflar bor. Biznpngcha, nisbatan to'liq va anik ta'rif M.I. Maxmudova tomonidan berilgan bo'lib, unda muammoli o'qitish mantiqiy fikrlar tadbirlari (tahlil, umumlashtirish) hisobga olingan o'rgatish va dars berish usullarini qo'llash qoidalari va o'quvchilarning tadqiqot faoliyatlari qonuniyatlarining (muammoli vaziyat, bilishga bo'lgan qiziqish va talab...) tizimi sifatida izohlanadi.

Muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orkali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, o'qitishning har qanday asosida inson faoliyatining muayyan qonuniyatlari, shaxs rivoji va ular negizida shakllangan pedagogik fanning tamoyillari va qoidalari yotadi. Insonning bilish faoliyati jarayoni mantiqiy bilish ziddiyatlarini hal qilishda obektiv qonuniyatlari didaktik tamoyillarga tayanadi. O'qitishning hozirgi jarayoni tahlili psixolog va pedagoglarning fikrlash muammoli vaziyat, kutilgan xayrat va mahliyo bo'lishdan boshlanadi, degan xulosalari haqiqatga yaqin ekanligini ko'rsatadi. O'qitish sharoitida insonning o'sha psixik, emotsional «hissiy holati unga fikrlash va aqliy ishlash uchun o'ziga xos turtki vazifasini bajaradi.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik «vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus

usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikir yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas. *U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilim izlari va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi.* Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog'liq bo'la bermasligiii ta'kidlash o'rinli bo'ladi. Yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Bunday mashaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. *Muammoli vaziyat* har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o'quvchi mashaqqat talab qilgan obekt (tushuncha, fakt)ning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab yetadi. Shunday qilib, *muammoni xosiyatining* mohiyati shundaki, u o'quvchi tanish bo'lgan ma'lumotlar va yangi faktlar, hodisalar (qaysiki, ularni tushunishi va tushuntirish uchun avvalgi bilimlar kamlik qiladi) o'rtasidagi ziddiyatdir. Ziddiyat bilimlarni ijodiy o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

- *o'quvchiga notanish faktning mavjud bo'lishi;*
- *vazifalarni bajarish uchun o'quvchiga berilidigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.*

Muammoln vaziyatdan chiqa olish hamma vaqt muammoni, ya'ni noma'lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va yechimini anglash bilan bog'langan.

Muammoli vaziyatning fikriy tahlil qiladigan bo'lsak, mustaqil aqliy faoliyatidir. U o'quvchini intellektual mashaqqat keltirib chiqargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so'z bilan ifodalash, ya'ni faol fikr yuritishni belgilashga olib ksladi. Bu o'rinda izchillik yorqin ko'rinadi avvalo muammoli vaziyat yuzaga keladi, so'ng o'quv muammosi shakllanadi.

O'qitish amaliyotida boshqa variant - o'sha muammo tashqi ko'rinishda muammoli vaziyat yuzaga kelishsha munofiq kelganday bo'ladigan variant ham uchraydi. Fikrlar, luqmalar nazariy qoidalar ziddiyaglari shaklidagi savollar ko'rinishidagi

muammoni ifodasi odatda «nimaga» savoliga javob bo'ladigan muammoli vaziyatning mavjudligini aks ettiradi.

Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), nomalum (ularni topish ya'ni bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (o'quvchilar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo o'quvchiga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, lekin o'quvchilar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib turib kutilgan natija yoki yechilish yo'lini izlashga tushadi.

Shunday qilib, o'quvchilar biladigan vazifa va uning mustaqil hal qilinish usuli o'quv muammosi bo'la olmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning schilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o'quv muammosi bo'la olmaydi.

O'quv muammosining muhim belgilari quyidagilar:

- *yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladigan noma'lumning bo'lishi;*
- *o'quvchilarda noma'lumni topshi yo'lida talantni amalga oshirshi uchun zarur bo'lgan muayyan bilim zahirasi bo'lishi.*

O'quv muammosini schish jarayonida o'quvchilar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning yechilish usulini o'ylab topish yoki gipoteza qilish hamda uni asoslashdir.

O'quv muammosi muammoli savollar bilan izchil rivojlantirib boriladi va bunda har bir savol uni hal qilinishida bir bosqich bo'lib xizmat qiladi.

Muammoning tarkibiy qismlari, malum va nomalumiing o'zaro munosabati xarakteri bilimga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi va faol bilishga bo'lgan izlanishga undaydi.

Ta'kidlash joizki, *muammoli o'qitishning zaruriy sharti o'quvchilarda uning natijasini izlash jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatni vujudga keltirish hisoblanadi.*

O'quvchilarning muammoli o'qitishdagi ijodiy va qidiruv bilish faoliyati muammoli vaziyat paydo qilinganda o'quvchilar mashg'ulotda *muammoni*

ifodalab berishdan iborat bo‘ladi, yani bilishdagi qiyinchiliklarning paydo bo‘lishi mohiyatini (ya’ni ushbu damda unga nima ma’lum bo‘lsa) so‘z bilan ifodalab beradi, so‘ngra muammoning yechilish usullarini qidiradi va bunda turli taxminlarni olg‘a suradi, o‘quvchilar haqiqiy deb topgan taxminlardan birini faraz sifatida asos qilib oladi va uni isbotlaydi, izlanish muammo yoki vazifa bajarilgandan so‘ng tugallanadi.

Shaxs bilish faoliyatining izlanish davrini maxsus sxemalarda ifodalash mumkin: *muammoli vaziyat - o‘quv muammosi - o‘quv muammosini yechish uchun izlanish - muammoning yechilishi.*

Muammoli o‘qitish mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o‘qituvchi uning ham ta’limiy, ham tarbiyaviy funksiyasini yaxshi anglab olgan bo‘lishi talab qilinadi. O‘qituvchi hech qachon o‘quvchilarga tayyor haqiqatni (yechimni) berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashg‘ulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur bo‘lgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida qayta ishlashlariga yordam berishi lozim bo‘ladi.

Muammoli o‘qitish bilimlarni ongli va mustahkam o‘zlashtirish, atrof-muhitga o‘zining faol munosabatini belgilab olishda o‘quvchilar bilish faoliyatini jonlantirishda katta imkoniyatlarga ega.

Muammoli o‘qitishda o‘qituvchi o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, shundagina o‘quvchilar fanlarni tahlil qilish asosida mustaqil ravishda intellektual mashaqqatlarni hal qilish, xulosa chiqarish va umumlashtirish, qonuniyatlarni shakllantirish, ko‘lga kiritilgan bilimlarni yangi vaziyatga tatbiq etishga intiladi.

Ayrim hollarda o‘qituvchi o‘quvchilarda nafakat qiziqish uyg‘otishi kerak, balki o‘quv« muammosini o‘zi hal qilib qo‘ymasligi va boshqa hollarda o‘quvchilarning o‘quv muammosini yechishdaga mustaqil ishlariga rahbarlik qilish lozim, natijada o‘quvchilarda bilimlarga mustaqil erishish qobiliyati shakllanadi hamda gipoteza qo‘yish va uni isbotlash orqali yangi aqliy harakat usullarini topadi, bilimlarni bir muammodan boshqa ko‘chirish ko‘nikmasini hosil qiladi, diqqat va tasavvurlari rivojlanadi. O‘quvchilar muammoli o‘qitish jarayonida muammoli vaziyatda o‘quv materiallarini idrok qilish orqali bilim va aqliy harakat usullarini o‘zlashtirar ekan,

o'rganilganlarni mustaqil tahlil qilar ekan, gipotezalar qo'yish va ularni isbotlash orqali o'quv muammolarini shakllangirar ekan, unda o'quvchilarning intellektual faolligi ta'minlanadi.

Shunday qilib, *muammoli o'qitishning vazifasi o'quvchilar tomonidan bilimlar tizimi va aqliy hamda amaliy faoliyatlari usullarini samarali o'zlashtirishga xamkorlik qilish, ularda yangi vaziyatda olingan bilimlarni ijodiy qo'llash malakasini xosil qilish, bilish o'quv va tarbiya muammolarini hal qilishidir.*

O'quv jarayonining amaliy tahlili muammosi o'qitishning o'ziga xosligini belgilash imkoniyatini ochadi. Muammoli o'qitishning mohiyati ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan axborotlarni o'qituvchining maxsus tashkil qilishidan iboratdir.

Muammoli o'qitishni tashkil etishning birinchi sharti o'quv axborotlarining takomillashib borishi tizimidir.

Muammoli o'qitishning ikkinchi shartida muammoli o'qitish amalga oshiriladi va unda axborotning o'quv vazifasiga o'tkazilishi vaqtida uni yechish usulini tanlash imkoniyati ko'zda tutiladi.

Muammoli o'qitishning uchinchi sharti talim oluvchining subektin mavqei, ularning bilish maqsadlarini anglab yetishi va qaror qabul qilishi, masalani hal qilish va natijani qo'lga kiritish uchun o'zlarining ihtiorida bo'lgan vositalarni baholay bilishidir.

Muammoli o'qitishga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi unda qo'llanadigan metodlarni asoslab berishni talab qiladi. Bunda: ijodiy, qisman-ijodiy evristik, axborotlarni muammoli bayon qilish, axborotni muammoli boshlash orqali bayon qilish asosiy metodlar hisoblanadi.

Ijodiy metod ta'lim oluvchining ijodiy mustaqilligini to'la amalga oshiradi. Unda o'quvchi o'qituvchining bergan vazifasini bajaradi, ayni vaqtda o'zlari ham o'quv muammosini shakllantiradi, o'zlari mustaqil gipotezani yechishga harakat qiladilar, izlanishni amalga oshiradi va provard natijaga erishadilar. Shu tariqa ijodiy metod qo'llash bilan o'quvchilar faoliyati olimlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yaqinlashadi. O'qituvchi faqat o'quvchilarning ilmiy izlanishlariga umumiy

rahbarlik qiladi, vazifalar esa ularning mustaqil o'quv-bilish xatti-harakatlarining to'la davriyligini ko'zda tutadi: yo tahlilgacha axborotlar tekshiriladi yoki yechilishiga qadar o'quv muammosi qo'yiladi hamda yechimlar tekshirib ko'riladi va yangi bilimlar joriy qilinadi.

Ijodiy metoddan o'rganilayotgan kursning umumiy asoslarini qamrab olgan eng muhim mavzularni o'tishda foydalanish tavsiya qilinadi. Bu esa boshqa barcha materiallarning tobora ongli o'zlashtirilishiga olib kelishi lozim. Shuningdek, bunday metodda mashg'ulot o'tkazish uchun o'qituvchi tanlangan bo'lim yoki mavzu o'quvchilarning idrok qilishlariga qulay bo'lishini nazarda tutishi lozim bo'ladi.

Ijodiy metod ta'lim oluvchidagi uzoq vaqtni va maxsus sharoit yaratilishini talab qiladi.

O'quvchilarning ijodiy ishlari shakliy jihatdan rang-barangdir. Ular ma'ruza matnini tayyorlash va seminarga tayyorgarlik ko'rish, u yoki bu masalaning nazariy holatini (adabiyotlar bilan birma-bir ishlash, hujjatlarni arxivdan o'rganish) o'rganish, ko'rgazmali qurollar, didakgik materiallar tayyorlash va boshqalardir.

Qisman ijodiy metod murakkab muammoni bo'laklarga ajratib, uning qulay masalalarinn bosqichma-bosqich aniqlab olishda qo'llanadi va unda hal qilingan har bir bosqich (qadam) masalaning keyingi bosqichini yechishda asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda o'quvchilar o'quv mummosining qo'yilishida, gipotezani taxmii qilish va isbotlashda faol kirishadilar. Ularning faoliyati reproduktiv va ijodiy unsurlarini o'zida qamrab oladi. Bunda o'qitishning qidiruv (izlanish) suhbat, o'quvchilarning javoblari va to'ldirishlariga qo'shimcha qilgan holda o'qituvchining faktlarini kuzatish va umumlashtirish usullari qo'llanadi. Bu hollarda o'quvchilarning reproduktiv va qidiruv (izlanish) faoliyatining munofiqligiga muhim ahamiyat kasb etadi. Ular biror bosqichdagi o'quv muammosining mustaqil hal qilishdan to ulardan aksariyati yechilgunga qadar kuchli o'zgarib turishi mumkin.

Mashg'ulotlarda ijodiy suhbatni qo'llash maqsadga muvofiq topiladi. O'quvchilar bunday suhbat jarayonida o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan bilimlari, ijodiy

faoliyati tajribasiga asoslangan holda o'qituvchi rahbarligida muammoni izlaydi va mustaqil ravishda uning yechimini topadilar. O'quvchilar o'z tashabbuslari bilan savollarga javob beradilar yoki o'z chiqishlarida turli mulohazalarni bildiradilar, muammoning yechilishidagi o'z variantlarini ilgari suradilar, hodisalar o'rtasidagi rang-barang, aloqalarar borasida bahslashadilar, boshqalarning fikriga tanqidiy munosabat bildiradilar. Bu jarayoida o'qituvchining o'quvchilarga yordam berish darajasi ularning mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ijodiy suhbatga tayyorlashda o'qituvchining unga o'ta mas'uliyat bilan yondoshishi talab qilinadi. O'qituvchi bunday suhbatga oldindan jiddiy tayyorgarlik ko'rish lozim: avvaldan shunday savollar o'ylab topishi kerakki, ular o'quvchining u yoki bu hodisaning mohiyatini anglab yetish va uning yechilish yo'llarini bashorat qila olsun. O'qituvchi o'quvchilarning umuman muammoni yechish uchun yetarli darajada tayyorgarlik ko'rib kelmasligini ham ko'zda tutishi va bunday vaqtda sodda va murakkablashtirib boruvchi qo'shimcha savollarni tayyorlab qo'yishi lozim, bunday savollar orqali o'quvchilar ijodiy hal qilishi shart bo'lgan vazifalarni qismlarga ajratish ham zarur bo'ladi, yani muammo kichik muammolarga bo'linadi va muammoli vazifa yechiladi. O'qituvchi bunday vaziyatda vazminligini saqlashi, o'quvchilarga tezroq yordam berish, kamchiliginn tuzatish va yanglish fikr bildirganlarga tanbeh berishga shoshilmasligi, balki qo'shimcha savollar bilan o'zlarining xatosini anglashga va to'g'ri qaror qabul qilishga erishish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy suhbat davomida kamroq tayyorgarlik ko'rgan, jonli fikr olishuvlarda, shuningdek, indamaslikni xush ko'radigan o'quvchilarga alohida axamiyat berish lozim. Bunday o'quvchilarning hulqlarini ko'zda tutgan holda ulardan ham «nido chiqishi»ga erishish maqsadida ular uchun ham avvaldan savollar tayyorlab qo'yish ma'qul bo'ladi.

Ijodiy xarakterdagi suhbat o'quv-tadqiqot ishlarining zaruriy bosqichi hisoblanadi. Unda o'quvchilarning o'zida tadqiqot ishlari unsurlari mavjud bo'lgan qisman-ijodiy faoliyatning bajarilishini talab qiladigan muammoli xarakterdagi mantiqiy masalalar diqqatni jalb qiladi.

Materialni muammoli bayon qilish. Bunda ijod o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi va tobora faollashtirib boriladi. O'qituvchi yangi materialni bayon qilishda uning yechilishini o'zi taminlaydi. Bunda o'qituvchi ziddiyatlarni ta'kidlaydi, uni barchaga eshittirib muhokama qiladi, o'z mulohazalarini bildiradi, haqiqatni faktlar, mantiqiy isbotlar tizimi yordamida asoslaydi. O'qituvchi bu tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshira olsa, o'quvchilar uning fikrlari borishiga diqqat bilan qo'shilib boradi, muammolarni yechilish oqimiga qo'shilib ketadi, birga fikr yuritadi, birga hayajonlanadi, shu tariqa mashg'ulotning qatnashchisiga aylanadi. Bunda o'qituvchi o'quvchining bilish jarayonini savollar berish, savolga savol berish yo'li bilan boshqaradi va shu orqali auditoriyadagi o'rganilayotgan materiallar bo'yicha ziddiyatlarga diqqatni jalb qiladi va o'quvchilarni o'ylab fikr yuritishga majbur qiladi. O'qituvchi tushunilmagan savolni hal qilishidan oldin o'quvchilar o'zlaricha o'z javoblarini tayyorlab qo'yadilar va uni ma'lum muddat o'tgach o'qituvchining fikri va xulosasi bilan taqqoslaydilar.

Materialni muammoli bayon qilish axborotni bayon qilishdan tubdan farq qiladi, chunki unda u yoki bu hodisaning belgilari, xossalari, tushunchalari, qoidalari shunchaki tasvirlab beriladi, tayyor xulosalar bayon qilinadi.

O'quv axborotlarining muammoli bayoni metodidan foydalanishning boshqa varianti fan taraqqiyoti tarixidagi u yoki bu qonunning olimlar tomonidan kashf etilishi yo'lini yoritib berish bo'lishi ham mumkin.

O'quv jarayonida keng tarqalgan metodlardan biri - *shartli ravishda o'quv axborotlarining bayonini muammoli boshlash* deb nomlanadigan metoddir. Materialni muammoli bayon qilish metodidan bu metod muammoli kam faqat materialni bayon qilish boshidagina yaratilishi bilangina farqlanadi. Keyinchalik material axborot usulida bayon qilinadi. Albatta, bu metod yuqorida o'quvchining ijodiy izlanish faoliyati, ayniqsa, ijodiy metodida ko'ringan ko'nikmalarni hosil qilishga imkoniyat bermaydi, lekin o'quvchilarning mashg'ulot ibtidosida olgan ilxomlari barcha materialni faol idrok qilishga, unga yuqori qiziqish uyg'otishga bevosita turtki beradi. Yuqoridagi barcha metodlar orasida bu metod o'zining oddiyligi bilan ajralib turadi.

Muammoli vaziyatni tashkil qilishda quyidagi ehtimol ko'ringan didaktik maqsadlarni hisobga olish zarur: o'quv materialiga o'quvchilar diqqatini jalb qilish, ularning bilishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, o'quvchilarning bilish faoliyatini jonlantirish, ularni intellektual zo'riqish mashaqqatlariga olib kelish, o'quvchilar tomonidan egallangan hozirgi bilim, malaka va ko'nikmalar kelajakda yuzaga keladigan bilishga bo'lgan talablarini qondira olmasligini ko'rsata bilish, o'quvchilarga o'quv muammolariiii tahlil qilishga, uning yechilishidagi eng ratsional yo'llarni aniqlashda yordam berish kerak.

O'quv jarayonidagi muammoli vaziyatning bir necha turlari farqlanadi:

1. O'quvchilar qo'yilgan vazifaning yechilish usulini bilmaydilar, muammoli savolga javob berolmaydilar.
2. O'quvchilar avval olgan bilimlarini yangi sharoitda foydalanish zaruriyatiga duch keladilar.
3. Vazifaning nazariy jihatdan yechilishi mumkin bo'lgan yo'li va tanlangan usulning amaliy jihatdan qo'llash qiyinligi orasida ziddiyat yuz beradi.
4. Vazifaning bajarilishida natijaga amaliy erishish va o'quvchilarda uni nazariy jihatdan asoslashga bilim yetishmasligi o'rtasida ziddiyat yuz beradi.

Adabiyotlarda muammoli vaziyat yaratishning quyidagi ko'p uchraydigan usullari qayd qilinadi:

- *hodisalar, o'rganilayotgan tushunchalar mohiyatini tushuntirish uchun muammoli vazifalar ko'yish;*
- *olingan bilimlarning amaliy tadbiri usullarini topish uchun muammoli vazifa qo'yish;*
- *o'quvchilarni hodisalar va xarakterlar orasidagi ziddiyatlar va nomuvofiqliklarni tushuntirib berishlariga undash;*
- *ilmiy tushunchalari va hayotiy tasavvurlari orasidagi ziddiyatni keltirib chiqaradigan fakt va xodisalarni tahlil qilishga undash;*
- *o'quvchilarni fakt, xodisa, xatti-xarakatlar, xulosalarni solishtirish, qiyos qilishga undash;*

- *o'quvchilarni go'yo tushunib bo'lmaydigan xarakterdagi va fan tarixida ilmiy muammoning ko'yilishiga sabab bo'lgan faktlar bilan tanishtirish.*

Muammoli vaziyatni vujudga keltirishning yuqorida keltirilgan usullari uning boshqa variantlariga chek qo'ymaydi. Har bir o'qituvchi o'zining amaliy faoliyatida o'quv materiallari bilan ijodiy ishlash jarayonida uni tashkil qilishniig turli imkoniyatlarini qidirishi va topishi mumkin.

O'quvchilarning fikrlari tobora kiyomiga yeta borib, *muammoli vaziyat* ularda ma'lum xissiy hozirlikni vujudga keltiradi, mustaqil amalga oshirilgan bilish jarayonidan, kashfiyotlardan qoniqish hosil qiladi. Xayratga tushish, tushkunlik yoki shodlik hissiyotlari muammoli vaziyatni to'g'ri tashkil qilish belgilari bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, yuqori ko'tarinkilik bilimlarni samarali o'zlashtirish, haqiqatni qidirish va unga erishishning muhim omili hisoblanadi.

Muammoning murakkabiligi, o'quvchilarning bilim saviyasi na malakasi, ularning ijodiy faolligi ko'nikmalari, didaktik maqsadga yo'nalganligiga qarab muammoli o'qitishda o'quvchi va o'qituvchi o'zaro munosabatlarining turli variantlari bo'lishi mumkin, yani *muammolilikniig turli sohalari* amalda bo'lishi mumkin.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda asosan muammolilikning uch sohasi haqida fikr yuritiladi:

Birinchi -o'qituvchi o'zi muammoni qo'yadi, uni shakllantiradi va o'quvchilarni mustaqil ravishda uning yechilish yo'lini qidirishga yo'naltiradi.

Ikkinchi o'qituvchi faqat muammoli vaziyatni vujudga keltiradi, o'quvchilar esa muammoni mustaqil shakllantiradilar va yechadilar.

Uchinchi - oliy sath bo'lib, unda o'qituvchi shunday qoidani ko'zda tutadi: muayyan muammoni ko'rsatib bermaydi, balki unga o'quvchilarni «ro'baro'» qiladi hamda ularni mustaqil ijodiy faoliyagga yo'naltiradi, ularni boshqaradi va iatijani baholaydi. O'quvchilar esa muammoni mustaqil anglaydilar, uni shakllantiradilar, uning yechilish usullarini tadqiq qiladilar.

O'quv muammosinipg qo'llanish jarayonini osonlashtirish uni muayyan tartibga rioya qilishi lozim bo'ladi. Muammoli vazifalarni tashkil qilishdan oldin o'quvchilarning sabab-oqibat aloqalarini o'rната olish usullarini egallaganligiga

ishonch hosil qilish, o'quvchilarning muammoli vaziyatni tahlil qila olish darajasini o'rganish shartdir. Shuningdek, o'qituvchi o'quvchilar e'tiboriga faqat ular uchun qulay bo'lgan muammolarni qo'ymasligi ham mumkndir. Shu bilan birgalikda muammoning yechilishi uni to'g'ri qo'ya bilishga ko'p jihatdan bog'liq ekanligini unutmaslik zarur.

Bu qoidalarni amalga oshirish avvalo o'quv materialining mazmun xususiyati bilan bog'liqdir. Uning tarkibi va tuzilmasiga qator talablarni qo'yish mumkin.

O'quv materiali quyidagi mazmunni qamrab oladi:

- *yangilik unsurlari (yangi tushunchalar, yaigi belgilar, xususiyatlar, nooma'lum tushunchalarning jihatlari, yangi aloqalar, harakatlanishning yangi usullari);*
- *faktlar, bilish vazifalari va masalalari, ziddiyatlari ko'rinishidagi materiallarni qamrab olgan ma'lum va yangi bilim o'rtasidagi ziddiyat;*
- *umumpedagogik va didaktik tamoyillarni hisobga olgan pedagogik nazariyaning metodologik asoslari materialni mavzuga muqofik bayon qilish.*

Shuni ta'kidlash lozimki, o'qitish jarayoni faqat «muammoli» yoki «nomuammoli» metodlar yordamidagina amalga oshmaydi, balki uning samarali borishi uchun xilma xil metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ta'limda tafakkur o'stirish o'quv-tarbiya jarayoni xususidagi qarashlarni o'zgartirishni, pedagogik amaliyotni yangicha yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Bunday yutuqqa o'quvchilarni faollashtirish yo'li bilan erishiladi. Bizga ma'lumki, tafakkuri rivojlangan inson muammolarni hal qilish uchun rang-barang javoblar izlaydi, o'z javobiga ishontirishga harakat qiladi, atrofida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni mohirlik bilan har tomonlama tahlil qila oladi, o'zgacha fikr yurita oladi, bilim olishga ehtiyoj sezadi.

Bugungi kun milliy ta'lim-tarbiyamizning asosiy vazifalaridan biri ham o'quvchilarning milliy tafakkurini o'stirish, milliy ongini yuksaltirishdan iborat. Buning uchun esa ta'lim tizimining barcha bosqichlarida bo'lgani kabi boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili fanining o'z o'rnini va ahamiyati mavjud. Zero, shu tilda tili chiqqan o'z dardu tashvishlari, quvonchu-shodliklarini shu til orqali ifodalovchi shaxslarni dastlab maktabgacha tarbiya muassasalari tarbiyalasa,

keyingi asosiy bosqich sifatida boshlang'ich ta'limni olishimiz mumkin. Boshlang'ich sinflarda o'quvchining tafakkurini o'stiradigan, ularni mantiqiy fikrlashga chorlaydigan vositalardan biri shubhasiz, bu fanning mashqlari hisoblanar ekan. Bu mashqlarni to'g'ri o'quvchi to'g'ri bajarishida esa biz bo'lajak o'qituvchilarning yoki umuman pedagoglarning roli juda kattadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishda muammoli ta'limdan foydalanish.

Muammoli ta'lim boshlang'ich ta'lim tizimida ta'lim – tarbiya jarayonini faollashtirish, o'quvchilarning o'quv – biluv jarayoniga ehtiyoji, qiziqishi va hoxishlarini ortirishga sabab bo'ladi.

Agar o'quvchi muammoli ta'limning mazmun – mohiyatini yaxshi o'zlashtirib olsa, o'quv jarayonining shakl va metodlarini, texnik jihatdan jixozlanishini amalda qo'llay olsa, u o'z – o'zidan muvaffaqiyat keltiradi.

O'qituvchining didaktik jihatdan tayyorgarligi juda muhimdir. Chunki muammoli ta'limning nazariy va amaliy jihatlarini atroflicha o'rganish – o'quv jarayonini san'at darajasiga olib chiqish demakdir. U o'z navbatida o'quvchining ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirib olishga kafolatdir.

Muammoli ta'limni muvaffaqiyatli kechish shartlari.

1. O'quv materialini muammolashtirish.
2. O'quvchining faol ishtirok etishini ta'minlash.
3. O'qitishning bola hayoti, yashash, turmush tarzi bilan, mehnati, o'yin bilan o'zaro aloqasini bog'lash.

Muammoli vaziyatlarni yaratish usullari.

1. O'qituvchi bolalarni ziddiyatni tug'dirish holatiga keltiradi va o'zlariga yechimni topishni taklif etadi.
2. Amaliy faoliyatdagi ziddiyatlar to'qnashuvini vujudga keltiradi.
3. Bir xil savolning o'ziga javobni berishda har xil fikrlarni bildiradi.
4. Hodisani har xil pozitsiyadan turib, ko'rib chiqishni taklif qiladi.
5. Taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga undaydi.
6. Aniq savollarga aniq yechimlarni topishni so'raydi.

7. Muammoli topshiriqlarni qo'yib, yechimini topishga har bir o'quvchini o'z shaxsiy fikr va qarashlarini so'raydi.

Umumta'lim maktablari oldida turgan bosh maqsad o'quvchilarning har tomonlama garmonik rivojlanishini ta'minlashdan iborat. O'qituvchi, o'quvchi shaxsini har tomonlama va garmonik rivojlanishini ko'rsatuvchi asosiy faktor, uning yuqori darajada mustaqil fikrlash, o'z nuqtai nazarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

Agar o'quv jarayoni o'quvchi – o'quvchini mustaqil fikr yurita olishga o'rgatsa, unday ta'limni rivojlantirishga asoslangan o'quv – biluv jarayoni deb qabul qilish mumkin.

O'quvchini fikrlashga yo'naltirilgan maxsus vositalarni qo'llab, uni fanga qiziqtirish, erkin fikrlashga o'rgatish, rivojlantirish tizimi yaratib borilsa, buni muammoli ta'lim deyish muumkin.

O'quvchini faollashtirishda samarali ta'lim metodini amalga oshirishda yangicha didaktik yondashuv asosida olib borilishi tushuniladi.

O'quvchilarning aqliy fikrlashlarini tayyor, avvaldan tayyor, mavjud bo'lgan yo'llar bilan o'stirish maqsadga erishishning oddiy usuli bo'lib, u ijodkorlikka, izlanuvchanlikka olib kelmaydi.

Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchi tahlillar asosida qo'llash, sintez qilish, umumlashtirish, faktik materialni aniqlashtirish, o'zi mustaqil, yangi axborot oladi. Boshqacha aytganda, ilgari olgan bilimlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi, o'zlashtiradi va amalda qo'llay bilishga harakat qiladi.

Olgan bilimlarini hayotda qo'llashda o'qituvchi qo'llanma, darsliklardan tayyor bilim olishni bermaydi, u o'quvchi tomonidan izlab topiladi. Mana shu holatda izlanuvchanlik, sinchkovlik, ishlash metodikasi va ko'nikmalari shakllanib boradi.

Aqliy izlanish – juda murakkab jarayon bo'lib, u asosan muammoli vaziyat vujudga keltirilganda, aniq muammolar ko'rsatilgandagina vujudga keladi. Agar o'qituvchi o'quvchiga topshiriq berib, uni qanday bajarish yo'lini aytib, uni bajarishga undasa, bu muammoni yechishga kirmaydi. Bu o'quvchini tanxo o'zini yagona yechishga o'rgatadi xolos.

O'quvchini haqiqiy faollashtirish, uni muammoni mustaqil fikrlash, nazariy va amaliy tamoyillarini hisobga olish, tahlil orqali muammo yechimini o'zi o'ylaganidek yakun toptirishga olib kelishi kerak. Muammoli ta'lim an'anaviy ta'limdan o'zining maqsad, prinsiplari, metodlari, vazifalari jixatidan keskin farq qiladi. An'anaviy ta'limning bosh maqsadi ilgariydan fanga ma'lum bo'lgan, bilimlarni o'zlashtirish, o'quvchini fanga ma'lum ma'lumot bilan qurollantirish, ular haqida tushuncha, ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iborat.

Muammoli ta'lim darajalari.

Birinchi bosqich. O'qituvchi muammoni to'liq yoritadi va uni yechimini topib beradi. Qarshi savollar yordamida o'quvchilarni fikrlashga ixtiyoriy majbur etadi.

Ikkinchi bosqich. O'qituvchi muammoni qo'yib, uning mazmun – mohiyatini ifodalaydi. Keyin o'quvchilarni muammo yechimini mustaqil izlashga yo'naltiradi.

Uchinchi bosqich. O'qituvchi muammoni bayon etmaydi, balki muammoli vaziyat yaratadi. O'quvchilar mustaqil fikr yuritib, muammoli vaziyatdan chiqish yo'llarini izlab topadilar.

To'rtinchi bosqich. Bunda o'qituvchi izlanish sohasini belgilaydi xolos, muammoga yaqinlashib boradi, lekin uning mazmuni yoki yechimini ko'rsatmaydi. O'quvchini mustaqil faoliyatga yo'naltiradi.

Muammoli ta'limda o'qituvchi o'quvchini murakkab tushunchalar mazmuni bilan tanishtirish jarayonida unga sistemali ravishda muammolar qo'yib boradi, o'quvchiga axborot beradi, o'quvchi mustaqil xulosalar chiqaradi, umumlashtiradi va o'qituvchi yordamida ma'lum tushuncha, qoidalar, xulosalar chiqaradi.


Muammo – ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning subektiv shaklidir.

O'qitish – shunday holatki, o'qituvchi o'z faoliyatida ta'lim mazmunini bayon qilishda qator muammoli vaziyatlarni keltiradi. Bir vaqtda shu yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida muammoni hal etishga undaydi.

Muammoli o'qish – o'quvchilar o'quv – biluv jarayonida muammoli vaziyatni tahlil etish, sintez qilish, umumlashtirish asosida uning yechimi bo'yicha takliflar, farazlar, keltiradilar, qarashlarning to'g'riligini isbotlashga harakat qiladilar.

Muammoli vaziyat – bu insonning intellektual qiyinchilikda paydo bo‘lgan vaziyatdan chiqish jarayoni, bunda ma’lum va noma’lum faktlarga suyanib, maqsad sari intilish, vaziyatdan chiqa olishga intilish, qiziqishlar orqali ijodkorlikka, pirovard natijani olishga intiladi.

Psixologlar tomonidan muammoli vaziyatlardan chiqishda sermahsul ishlay olish, chiqa olish ketma – ketligi aniqlangan. U quyidagi ko‘rinishga ega:



Muammoli vaziyatlardan aqliy harakat orqali chiqish ketma – ketligi bir qancha bosqichlardan iborat:

- muammoning vujudga kelishi;
- qiyinchilik nimadan iborat ekanligini tushunib olish;
- uning yechimi yo‘llarini qidirib topish, bunda yechim bo‘yicha fikr, takliflarni keltirish, isbotlash;
- taxminlarni isbotlash;
- muammoning yechimi to‘g‘riligini tekshirish.

Muammoli ta’limning bosqichlari

1. Muammoli vaziyatni keltirib chiqarish;
2. Muammoli vaziyatni asoslash, tushuntirish;
3. Muammoli vaziyatni o‘quvchilar bilan tahlil qilish;
4. Muammoli vaziyat yechimining bir necha usullarini aniqlash;
5. Muammoli vaziyatning samarali yechimini dalillar bilan asoslash;
6. Muammoning natijaviy yechimini tanlab, har tomonlama baholash.

Muamoli ta’lim funksiyalari

- ijodiy fikrlash orqali bilimlarni o'zlashtirish shakllanadi (ayrim mantiqiy va ijodiy fikrlash faoliyatining shakllanishi);
- olgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olishlari shakllanadi;
- o'quv muammosi yechimiga mustaqil yo'l ochish ko'nikmalari hosil bo'ladi;
- ijodiy fikrlash tajribalari shakllanadi;
- ilmiy metodlar asosida izlanishga o'rganadilar va ularni amalda qo'llaydilar.

Ilmiy izlanish tajriba – sinovlar, pedagogik amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, muammoli vaziyatlarni hamma o'quv faoliyatlariga nisbatan quyidagi tiplarga bo'lish mumkin:

Birinchi tip. Agar o'quvchilar oldiga vazifalar qo'yilib, qo'yilgan masalalarga hayotdan o'quv materialini asosida javob talab qilinsa, muammoli vaziyat kelib chiqadi.

Ikkinchi tip. O'quvchilar ilgari darslarda olgan bilimlarini yangi mavzuni o'zlashtirish zarurligiga uchrab qolsalar. Yangi mavzuning yechimi ilgari olgan bilimlarini o'zlashtirganliklarini talab etib, vaziyatdan chiqib olmay qolsalar.

Uchinchi tip. Muammoli vaziyat shunday hollarda ham uchrashi mumkinki, o'quv topshirig'ini amalda bajarish uchun o'qituvchida isbot, nazariy asos bo'lmasa.

Muammoli o'qitish metodlari:

1. Muammoni bayon etish, bunda pedagog mustaqil ravishda muammoli vaziyatni keltiradi va uning yechimini mustaqil qidiradi va topadi.
2. Pedagog mustaqil ravishda muammoni qo'yadi, ammo uning yechimini o'quvchilarni jalb qilgan holda hamkorlikda izlaydilar, topadilar, xulosalaydilar.
3. Pedagog o'quv jarayonida o'quvchilar oldiga muammoni qo'yadi. O'quvchilar uni izlaydilar, axborot almashadilar, qayta ishlab, o'zlarining ishtiroklaridagina yechimini topadilar.
4. Muammoli vaziyat o'quvchilarning o'zlari vujudga keltiradilar. Uning yechimini boshqa o'quvchilar izlanishlari, yangicha fikrlashlari orqali o'zaro yechim qidiradilar, topadilar.

Muammoli ta'lim sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan M.I.Maxmudov, M.N.Sketkin, A.M.Matyuvgikven, I.Y.Lanker kabi olimlarning xulosalariga ko'ra quyidagi muammoli ta'lim metodlarini keltirish mumkin:

- tushuntirish, namoyish etish;
- muammoli bayon qilish;
- reproduktiv;
- ilmiy izlanish.

Yuqoridagilar asosida shunday xulosa chiqarish mumkinki, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muammoli o'qitish metodlari juda muhim rol o'ynaydi. Chunki muammoli ta'lim o'quvchini izlanishga, ijodkorlikka, erkin fikr yuritishga o'rgatadi. O'quvchida bunday sifatlarning shakllanishi, o'quv – biluv mas'uliyatini oshiradi, mustaqil bilim olish, izlanish uning kundalik odatiy ishiga aylanadi. Bu esa o'z navbatida, ta'lim mazmunini, takomillashgan standartlar, moderinizatsiya qilingan dasturlarni to'la o'zlashtirib olishga kafolat bo'ladi.

Agar o'qituvchi o'quvchilarning fikrlash, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishni bosh maqsad qilib olsa, unda o'quvchilarning muammoli ta'lim asosida faoliyat yuritish ko'nikma va malakalarini shakllantirishi zarur. O'quv tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, ta'lim va o'quv – biluv jarayonlariga “muammoli o'qitish” didaktikasini joriy etib borish asosiy ish jarayoniga aylanmog'i kerak.

Boshlang'ich ta'lim tizimida muammoli ta'lim texnologiyalarni amaliyotda qo'llash qonuniyatlari.


Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol

metodlar nomi bilan yuritilmokda. Quyida boshang'ich ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

**«Qarorlar shajarasi» («Qarorlar qabul qilish texnologiyas»)
metodi**

«Qarorlar shajarasi» metodi muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o'zlashtirish, ma'lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to'g'risini topishga yo'naltirilgan texnik yondoshuvdir, ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa) lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi. Guruh yoki sinf o'qituvchilari ishtirokida qo'llaniladigan «Qarorlar shajarasi» bir necha o'n nafar o'quvchilarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta'lim jarayonida mazkur metodning qo'llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda nomaqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilar quyidagi chizma asosida tuzilgan jadvalni to'ldiradilar (yoki ushbu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadilar):



QAROR

«Qarorlar shajarasi» metodi quyidagi shartlar asosida qo'llaniladi:

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror) larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.

2. O'qituvchi o'quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlariga ajratadi. Muammoning hal etilishi u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarining har bir a'zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a'zolari bir to'xtamga kelib oladilar.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a'zolari o'z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o'qituvchi rahbarligida barcha o'quvchilar bildirilgan xulosa (qaror) larni bir biri bilan qiyoslaydilar. Muammo yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tug'ilgudek bo'lsa, ularga javoblar qaytarilib boriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Agarda barcha guruhlar tomonidan muammo yuzasidan bir xil qarorga kelingan bo'lsa, o'qituvchi buning sababini izohlaydi.

«Qarorlar shajarasi» metodi quyidagi loyihaga asoslanadi:

«QARORLAR SHAJARASI» metodi

UMUMIY BAHO					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
QAROR:					

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

Mavzu: Bosh kitob (Safar Barnoyev)
Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Haq-huquqimiz, kitob, O'zbekiston, qomuslar-qomusi
Soatlar soni: 1 soat
Mavzuning qisqacha tahrifi: She'rda Bosh qomusimiz bo'lgan Konstititsiyamiz haqida, uning qomuslar qomusi, erkinligimiz kafolati ekanligi haqida gap boradi.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Dars turi: Yangi bilim beruvchi, she'r o'tish darsi. Metod: suhbat, ifodali o'qish, tushuntirish, tarmoqlash, muammoli izlanish, munozara. Shakl: jamoa, guruh bilan ishlash Jihoz: She'r asosida tayyorlangan slayd, Konstitutsiya kitobi, darslik. Nazorat: O'quvchilarning darsdagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi. Baholash: O'quvchilar reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.
Darsning maqsad va vazifalari
Maqsadlar:
Ta'limiy: O'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish. Lug'atlarini yangi so'zlar bilan boyitish.

Tarbiyaviy: Tabiatga mehr berish ruhida tarbiyalash, o'zaro munosabatlar etikasini o'rgatish. Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning to'g'ri, ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish. Vatanga, tabiatga muhabbat tuyg'ularini mustahkamlash.			
Kutilayotgan natija:			
Dars yakunida o'quvchilar she'rni to'g'ri va ifodali o'qish malakasiga ega bo'ladilar. Yangi so'zlarni tushunadilar, nazmiy materiallarni tahlil qilishga o'rganadilar. Ijobiy axloqiy sifatlarni o'zlashtiradilar.			
Dars jarayoni va texnologiyasi			
Ishning nomi	Bajariladigan ish nomi	Metod	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.	Suhbat	2 daqiqa
2-bosqich (Refleksiya) Ehtiyojlarni aniqlash	Dars davomida rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi. Dars shiori ishlab chiqiladi.	Muno-zara	2 daqiqa
3-bosqich Darsning borishi	1. O'tgan dars so'raladi, o'quvchilar bilimi baholanadi.	Savol javob (tarqatma material-lar asosida)	5 daqiqa
	2. Yangi darsni o'qishga tayyorgarlik va bolalar shoiri Safar Barnoyev haqida ma'lumot berish.		
	3. O'qituvchi "Bosh kitob" she'rini ifodali o'qib beradi. She'rning mazmuni ustida ishlanadi.	Suhbat	5 daqiqa
	4. Lug'at ishi	Ifodali	6 daqiqa
	5. O'quvchilarga she'r o'qitiladi. She'rning mazmuni tushuntiriladi.	O'qish Munozara	5 daqiqa 6 daqiqa

4-bosqich Mustahkam-lash	1.Tarmoqlash metodi asosida olib boriladi. 2.Darslikdagi savollarga javob topiladi.	Muam-moli izlanish	3 daqiqa 4daqiqa 3daqiqa
5-bosqich Baholash. Darsni yakunlash	O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, ballari e'lon qilinadi va dars yakunlanadi.		2 daqiqa
6-bosqich	She'rni yod olish va mazmuniga mos rasm chizib kelish.	Tushun- tirish	2 daqiqa

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism: Salomlashiladi. Davomat aniqlanadi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

Shundan so'ng darsda rioya qilinishi lozim bo'lgan qoidalar e'lon qilinadi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar darsni boshlashdan oldin darsimizning oltin qoidalarini eslatib o'tsam. Bular

1. Intizom

2.Ahillik

3.Faollik

4. Aniqlik

5. O'ng qo'l qoidasi

6. Boshqalar fikrini hurmat qilish (Slayd orqali ham namoyish etiladi)

Endi bugungi darsimiz shiorini e'lon qilsam.

Bizning shior: OLTIN OLMA BILIM OL,

BILIM OLSANG BILIB OL.

2. Uyga vazifani so'raladi.

O'qituvchi: O'quvchilar uyga qanday vazifa berilgan edi?

O'quvchi: Uyga O'tkir Hoshimovning "Chana" hikoyasini ifodali o'qish berilgan.

O'qituvchi: Hamma o'qib keldimi?

O'quvchilar:

2-3 ta o'quvchidan uyga vazifa so'raladi.

O'tgan mavzuni mustahkamlash yuzasidan qolgan o'quvchilarga **tarqatma materiallar** yordamida savollar tarqatiladi. Javoblar olinganidan so'ng o'qituvchi tomonidan o'quvchilar baholanadi. O'tgan mavzu o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganligi xulosalanadi.

3. Yangi mavzu bayoni:

O'quvchilarda yangi mavzuni o'rganishga qiziqish uyg'otish maqsadida Rebus yechdiraman.



Savol: Bugungi o'qish darsimiz qaysi mavzu haqida ekan?

.....Kirish suhbat: Slayd orqali dekabr oyida nishonlanadigan bayramlarga mos rasmlar ko'rsatiladi va savollar beraman.

-Dekabr oyida qanday bayramlar nishonlanadi?

- Ushbu oyda keng miqiyosida nishonlanadigan asosiy bayram?

- Davlat ramzlaridan biriga she'r ayting.

Xattaxtaga "Bosh kitob" (Safar Barnoyev) deb yozaman.

-She'r muallifi kim ekan? U haqida nimalarni bilasiz?

-

Safar Barnoyev - iste'dodli bolalar adibi. 1938 yil Buxoroda tug'ilgan. Birinchi she'ri 1959 yilda "Lager qoynida" nomi bilan? Birinchi she'riy to'plami 1970 yilda "Tog'damen" nomi bilan bosilib chiqqan.

Shundan so'ng uning "Birinchi tabassum" (1970), "Dadmnining qo'llari" 1974, "Yulduzxon va Bahorjon" (1977), "Oq laylaklar" (1982) abi qator she'riy to'plamlari nashr eyilgan.

Mazkur to'plamlarga kiritilgan asarlarning bosh qahramonlari yoshlar, o'smirlardir.

She'rni o'zim ifodali o'qib beraman.

Ozod erkinlikning ramzi bu kitob

Unda aks etgandir haq haqqimiz

Yo'limiz yoritar , misoli oftob

Qo'lda baland tursa Agar tug'imiz,

Millionlar taqdiri unda mujassam

Qomuslar qomusi deydi xalqimiz

Er sharin yoritdi. O'zbekiston ham

Yurtga fido bo'lsak

Kular baxtimiz.

She'r yuzasidan kirish suhbat:

-She'r nima haqida ekan?

-.....

- unda nimalar tasvirlangan?

She'rdagi qaysi jumlar sizga juda yoqdi? Nima uchun?

-.....

Dam olish daqiqasi:

Slayd asosida olib boriladi.

She'rni qatorlarga bo'lib o'qitaman.

1-qator birinchi to'rtlikni o'qiydi.
Ozod erkinlikning ramzi bu kitob
Unda aks etgandir haq haqqimiz
Yo'limiz yoritar , misoli oftob
Qo'lda baland tursa Agar tug'imiz,
 2-qator ikkinchi to'rtlikni o'qiydi.
Millionlar taqdiri unda mujassam
Qomuslar qomusi deydi xalqimiz
Er sharin yoritdi. O'zbekiston ham
Yurtga fido bo'lsak
Kular baxtimiz.
Lug'at ishi.

Tug'-
Haq-huquqimiz
Yer shari
Fido

Yangi mavzuni mustahkamlash. O'quvchilarning Konsitutsiya haqidagi bilimlarini kengaytirish maqsadida tarqatma materiallar orqali savol javob qilinadi.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qachon qabul qilingan?
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi nechta moddadan iborat?
3. Konstitusiyda qanday huquqlarimiz aks etgan?
4. Bu yil Konstitutsiyamiz qabul qilinganligiga necha yil boldi?

Shuningdek, tarmoqlash metodi orqali mavzu xulosalanadi.



Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholanadi.

Uyga vazifa.

She'rni yod oling. She'r mazmuniga mos rasm chizing.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraššiyotining poydevori. (Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqi). Barkamol avlod orzusi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2000 y.
2. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- T.: Uz PFITI, 1999 y.
3. Tolipov U.K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbikiy asoslari (ukuv kullanma).-T.: «Fan» nashriyoti, 2006 y.
4. Tolipova J.O. Pedagogik texnologiyalar-dustona mux, it yaratish omili. -T.: YUNISEF, 2005 y.
5. B.L. Farberman. "Progressivniye pedagogicheskiye texnologii" - T. 1999. 6. G.K. Selevko. "Sovremenniy obrazovatelniy texnologii". Uchebnoye posobiye - M.: Narodnoye obrazovaniye, 1998.

- 7.V.P. Bespalko. "Slagayemiye pedagogicheskiye texnologii". - M. Pedagogika 1989
- 8.V.P. Bespalko "Pedagogika i progressivniye texnologii" - M. 1995. M.A.
- 9.Choshanov.. "Gibkaya texnologiya problemno-modulnogo obucheniya". - M.: Narodnoye obrazovaniye, 1996.
- 10.M.V. Klarin. "Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse" - M.: Znaniye, 1989.
- 11.M.V. Klarin. "Innovatsii v mirovoy pedagogike: obucheniye na osnove issledovaniya, igri i diskussii". - Riga, 1995.
- 12.N. Saidaxmadov, M. Ochilov. "Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi". - T.: XTB RTM, 1999.
- 13.M.G. Davletshin. "Modulnaya texnologiya obucheniya". - T. 2000.
- 14.N.N. Azizxujayeva. "Ukituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi". - T. 2000

Tavsiya etiladigan internet resurslari:

<http://www.istedod.uz> - "Iste'dod" jamg'armasi sayti. <http://www.edunet.uz> - maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti. <http://www.scholar.urc.ac.ru/courses/telecom> - maktabda telekommunikatsiyani o'qitish.